

LINGVORANGLI OLAM MANZARASI TURLARINING LISONIY TAHLILI

Akbarova Zuxro Akmaljonovna,

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida professori,

filologiya fanlari doktori (DSc)

akbarovazuhra41@gmail.com

Xoshimova Oydina Shuxrat qizi,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

oydinakhoshimova@gmail.com

Annotatsiya. Lingvorangli olam manzarasi tilshunoslikda muhim tushunchalardan biri bo'lib, insonning ranglar orqali atrofidagi dunyoni qanday qabul qilishi va bu ranglarni til yordamida ifodalashi bilan bog'liq. Mazkur maqolada lingvorangli olam manzarasi turlarining lisoniy tahlili muhokama qilinadi. Ranglar ko'plab madaniyatlar va tillarda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ularning lisoniy tahlili o'ziga xos ahamiyatga ega. Ranglar orqali ifodalangan olam manzarasi turli tillarda o'ziga xos tarzda shakllangan bo'lib, milliy madaniyat, tarix va hayot tarzi bilan bevosita bog'liqdir. Maqolada ranglarning til birligi sifatida ko'rinishlari va ularning leksik-semantik tahlili o'rganiladi. Shuningdek, rangli olamning hissiy, madaniy va milliy jihatlari yoritiladi. Ushbu tahlil yordamida ranglar orqali ifodalangan olam manzarasi haqida yanada chuqurroq tushuncha hosil qilish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: lingvorangli olam, ranglar, madaniyat, hissiy ifodalar, madaniy ranglar, olam manzarasi, hissiy ranglar, lingvistik tadqiqotlar, rang va til, milliylik, urf-odatlar,

Asosiy matn. Til inson ongida voqelikni aks ettirishning asosiy vositasi sifatida jamiyatning turli jabhalarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ranglar tilning semantik sistemasida alohida o'rin tutadi, chunki ular madaniyat, urf-odatlar va xalqning dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Har bir tilda ranglarning anglanishi va ularga berilgan ma'no alohida o'ziga xoslikka ega bo'lib, bu jarayon "lingvorangli olam manzarasi" tushunchasi bilan izohlanadi. Ranglarning til va madaniyat o'rtasidagi aloqasini o'rganish, ularning qaysi jihatlari universallik va milliylikni ifoda etishini aniqlashga yordam beradi.

Sh. Alimovanning fikricha, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning asosida shakllangan olam manzarasi jamiyatning umumiy qadriyatlarini aks ettiradi[1]. Demak, olam manzarasi til va madaniyatning o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi. Til orqali yangi tushunchalar va qabul qilish usullari keladi, bu esa jamiyatning rivojlanishiga olib keladi.

N. Alimova ham to'g'ri ta'kidlaganidek, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganib, rang ifodolovchi birliklarning madaniy identifikatsiya va ijtimoiy kontekstga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan[2].

Olam manzarasi tushunchasi falsafiy va lingvistik jihatdan chuqur ma'noga ega bo'lib, insonning dunyoni qanday qabul qilishi va bu qabul qilish usulini til orqali ifodalashi haqida fikr yuritadi. Lingvist M. T. Xalimovaga ko'ra, " *Olamning manzarasi* tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi. Olam o'zaro munosabatdagi inson va muhit bo'lsa, olam manzarasi inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir[3]". Har bir millatning kundalik ongida tarixan shakllangan va tilda aks ettirilgan, dunyoning o'ziga xos milliy lingvorangli olami yaratilgan bo'ladi. Va ushbu tildan foydalangan shaxs ham va nutq mazmuni ham ushbu olam manzarasiga muvofiq tashkil qilinishi kerak. Ushbu an'anaga aylangan qadriyatlar muhim sanaladi. Milliy urf-odatlar va qadriyatlar har bir xalq va elatning farqli jihatlari belgilab beradi.

Barcha ranglarning umumiyligi dunyoning rangli olamida tilda ifodalangan rang maydoni hodisasini aks ettiradi. Va bu, birinchi navbatda, bu guruhning nisbatan ixcham va oson ajratiladigan leksik guruh ekanligi bilan bog'liq, ko'pincha bu tabiatda mavjud bo'lgan ranglarning ekstralingvistik pozitsiyalarini aks ettiruvchi ranglar deb izohlanadi.

Biroq, buni o'rganishga qiziqish ortishiga qaramay so'zlar guruhlari, rang lug'atini, rang ifodolovchi birliklarni, xususan, o'zbek va ingliz tillarida solishtirish muammosi hali ham kam o'rganilganligicha qolmoqda. Mavjud lingvistik adabiyotlar ikkala tildagi rangli so'zlarning konnotativ ma'nolarini va ularning so'z birikmalarida ishlash xususiyatlarini to'liq tavsiflamaydi. Qolaversa, til va nutq madaniyatimizda umuman ingliz va o'zbek tillarining rang ifodalovchi leksemalarining leksik-semantik xususiyatlari, xususan, rangli olam manzarasining qiyosiy-chog'ishtirma tahlili yo'q.

Bundan tashqari, ikki til madaniyatidagi olam manzarasining ko'rib chiqilayotgan qismining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida ingliz va o'zbek rang nomlarining konnotativ va denotativ ma'nolarini tadqiq qilish e'tibordan chetda qolgan. Bu esa tadqiqotning dolzarbligini va ushbu mavzuni tadqiq qilish zaruratini belgilaydi.

Har bir millat, har bir inson olamni o'zicha, o'z imkoniyatidan kelib chiqib angelaydi. Shu bois muayyan rangning ham turli millat vakillarida, turli sohalarda, hatto bir millatga mansub turli kishilarda tushunilishi, anglanishi, tanilishi va ta'siri turlicha bo'ladi. Ya'ni muayyan rang kimgadir yoqimli bo'lsa, kimgadir yoqimsiz, noxush; kim uchundir tinchlantiruvchi, kayfiyatni ko'taruvchi bo'lsa, kim uchundir diqqatni tortuvchi, asabga teguvchi bo'lishi mumkin[4]. Hayotimizdagi qandaydir bir rang bir millatda ga'amginlikni anglatga, boshqa bir millatda hursandchilikni belgisi bo'lishi mumkin.

Shu tushunchani A.Vejbitskaya o'z g'oyalari bilan asoslab berdi – "manzara hamma joyda har xil ko'rinadi. Hamma joyda ham odamlar dengiz yoki qor bilan tanish emaslar, tuproq hamma joyda ham jigarrang emas (ko'p joylarda u ko'proq qizil, sariq yoki qora bo'lishi mumkin) va hattoki o't ham uning tarkibida namning miqdori va quyoshda joylashganligiga bog'liq (masalan, Avstraliyada o't bilan qoplangan joy yashildan ko'ra ko'proq sarg'ish yoki jigarrangdir)[5] " Demak, bundan hulosa qilishimiz mumkinki, har bir xalqning o'ziga xos rang idroki bor. Yer yuzida yashovchi har bir shaxsning o'z olam manzarasi bor. Inson bu dunyoga kelganidan boshlab uning ongida dunyo tasviri shakllanib boradi. Shu bilan birga insonning qaysi jamiyatda, qaysi millatda va qay holatda yashayotgani uning olam manzarasi haqidagi tafakkuriga juda katta ta'sir qiladi. Masalan: hind millat vakillari yerni toshbaqa va fillar ko'tarib turishiga ishonishadi; yunonlar esa yer shar shaklida deb fikr yuritishadi; qadimgi shumerlar esa hamma mavjudot va buyumlar okeandan paydo bo'lgan deb ta'riflashadi. Har bir jamiyatning olam manzarasi haqida doim ishonib kelgan ajdodlardan qolgan o'z haqiqati bor.

Olam manzarasi nafaqat insoniyatni qiziqtiradi, balki ko'plab ilmiy tadqiqotlar va nazariyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Olam haqida ko'proq ma'lumot olish, o'z-o'zini anglash va insoniyatning kelajagini tushunishga yordam beradi. Umuman olganda, olam manzarasi *tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya* o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishga yordam beradi. Bu tushuncha, insonlarning dunyo haqidagi qarashlari va tajribalarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Olam manzarasi **lingvokulturologiyada** muhim tushuncha bo'lib, til va madaniyat o'zaro ta'sirida shakllanadi. Bu tushuncha insonning muayyan til vositasida atrof-muhitni qanday anglashini va ifodalashini o'rganishga qaratilgan. V. V. Vorobyev ta'riflashicha "bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda

beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır[6]". [6] Lingvokulturologiyada olam manzarasi tilning nafaqat kommunikativ, balki kognitiv va madaniy funksiyalarini ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonda til orqali insonlar qanday bilimlar, qadriyatlar va dunyoqarashlarni saqlab qolishi va uzatishi o'rganiladi.

Olam manzarasi tilning semantik, leksik va grammatik tizimlarida aks etadi va bu orqali xalqning mentaliteti, milliy xususiyatlari, qadriyatlari hamda dunyoni idrok etish xususiyatlari ifodalanadi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda olam manzarasi turli madaniy kodlar va simvollar vositasida shakllangan kontseptual dunyoqarashni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. G. Toshmurodov ta'kidlaganidek, lingvokulturologik tadqiqi xalqning madaniyati, tarixiy an'analari va dunyoqarashini tahlil qilish imkonini beradi. Rang tasnifi orqali xalqning estetik qarashlari ham o'rganiladi[7].

Lingvistik antropologiyada esa olam manzarasi orqali til va madaniyat o'rtasidagi bog'lanishni tahlil qiladi. Bu soha odamlar qanday qilib til orqali o'z madaniyatlarini ifodalashini va o'zaro aloqalarini tashkil qilishini tadqiq etadi. Olam manzarasi lingvokulturologiyada madaniy va til tizimlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, turli xalqlarning dunyoqarashini ko'rsatadi.

Lingvorangli olam manzarasi - bu ranglarning til vositasida ifodalanishi va ularning madaniy hamda milliy tafakkurga ta'sirini o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir. Ranglar dunyoqarashning ajralmas qismi bo'lib, ularning ma'nolari madaniy va lingvistik jihatdan turli-tuman. Har bir tilda rang tushunchasi turlicha ifodalanadi, chunki u milliy madaniyat va tarix bilan uzviy bog'liq. Bu rangli olamning o'ziga xosligi lingvistik tahlil qilish orqali aniqlanadi va ranglarning madaniy, kognitiv va leksik-semantik xususiyatlari o'rganiladi.

Lingvorangli manzaraning turlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Olamning rangli manzarasi

Bu turdagi manzarada ranglar tabiiy ob'ektlar, masalan, osmon, daraxtlar, suv, tuproq kabi unsurlarga asoslanadi. Rangli dunyoqarash tabiiy muhitni o'zida aks ettiradi va ko'p hollarda ranglar an'anaviy ma'nolar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida "yashil" rang hayot, baraka va yangi boshlanishlarni ifodalasa, boshqa tillarda ham shu kabi ma'nolarni anglatishi mumkin[8].

2. Lingvorangli olamning madaniy manzarasi

Ranglarning madaniy jihatdan qanday qabul qilinishi har xil tillarda va madaniyatlarda farq qiladi. Masalan, O'zbekistonda oq rang sof va poklikni ifodalasa, Xitoyda u motamni bildirishi mumkin[9]. Shuningdek, ranglarning milliy ramziy ma'nolari turli rang tushunchalarini shakllantiradi, bu esa lingvistik tahlilni boyitadi.

3. Lingvorangli olamning hissiy manzarasi

Ranglar ko'pincha insonlarning hissiy holatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Misol uchun, o'zbek tilida "qizil" rang qizg'inlik, ehtiros yoki xavfni anglatishi mumkin, ingliz tilida esa "to see red" iborasi g'azablanishni bildiradi[10]. Hissiy rangli manzara odamlarning dunyoni ranglar orqali qanday his qilganini ko'rsatadi.

4. Metaforik rangli manzara

Ko'pincha ranglar metaforalar orqali keng ma'nolarni anglatadi. Ranglar tildagi metaforalar yordamida aniq bir kontekstda turli xil ma'nolar oladi. Masalan, "oq niyat", "ko'k osmon" kabi iboralar rangning tasviriy ma'nosini ko'rsatadi

5. Frazologik rangli manzara

Frazeologik birikmalar va maqollar ham ranglarni o'z ichiga oladi. Bu birikmalar rang tushunchalarining o'ziga xos lisoniy ko'rinishini beradi. O'zbek tilidagi "oq yuvib, oq taramoq" yoki "qora kunlar" kabi frazeologizmlar ranglar orqali ifodalangan ma'nolarni aks ettiradi[11].

6. Olamning lisoniy manzarasi

Olamni o'rganishda umumiy va milliy spetsifik dialektikaga ega. Ularning birligi quyidagicha ta'minlanadi: a) hamma uchun bir xil tabiiy xususiyatga ega yashash muhiti, ya'ni odamlar yashaydigan olamning yagonaligi bilan; b) olamda borliqni tasavvur qilishning universal, odamlar uchun eng muhim binar oppozitsiyadagi (masalan, baland-past, hayot-o'lim, sifat-son va b) insoniyat uchun yo'nalish yo'sinlarining birligi bilan; v) tilning o'ziga xos vakolatlari birligi (lisoniy kompetentsiya) odamning genetik tabiatiga ko'ra qobiliyati[12].

Fikrlarni umumlashtirib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin, har bir taffakur qila oladigan inson bu yer yuzidagi Quyosh, Yer, Osmon, Koinot, o'rmon, tabiat va umuman olganda bu dunyo qanday tashkil topganligi haqidagi masalalarga qiziqadi. Bunday mulohazalar davrlar osha har bir ongli odamning xayoliga kelgan. Eng ahamiyatlisi har bir millat o'zining individual tasviriga ega ekanligini va o'ziga xos dunyoqarashi bilan ajralib turishini bilib oldik. Qolaversa, har bir sohada ham rangga turlicha ta'rif berib kelingan va **lingvokulturologiya** rangga "moddiy olamdagi mavjudliklarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydigan, ko'rish vositasida idrok etiladigan va muayyan nomlar orqali tilda ifodalanadigan universal mental kategoriya[13]" deb izohlaydi. Lingvorangli olam manzarasini tahlil qilish orqali turli tillarda ranglarning qanday tasniflanishi va ifodalanishi o'rganiladi. Bu, o'z navbatida, madaniyatlararo muloqotni yaxshilashga va rang tushunchalari orqali insonlar o'rtasidagi ma'naviy, hissiy va madaniy aloqalarni tushinishga yordam beradi.

Ushbu tahlil ranglarning lingvistik manzarasidagi o'rni va ularning ma'nolari haqida chuqurroq tasavvur beradi hamda til va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova Sh., Til va madaniyat, Buxoro, 2013.
2. Алымова Е. Н. Цвет как лингвокогнитивная категория в русской языковой картине мира: автореф. дис. канд. филол. наук. СПб., 2007.
3. Xalimova M. T. Olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi. – 2021y. 888-b
4. Алымова Е. Н. Цвет как лингвокогнитивная категория в русской языковой картине мира: автореф. дис. канд. филол. наук. СПб., 2007.
5. Вежбицкая А. Язык, культура, знание. М.: Русские словари, 1996. С. 233-234.
6. Vorobyov V.V. Lingvokulturologiya. -M.: Rossiya xalqlar do'stligi universiteti nashriyoti. 2006 yil.
7. G. Toshmurodov, "Madaniy kod va til", 2019, 98-bet
8. Wierzbicka, A. (1996). Semantics: Primes and Universals. Oxford University Press.
9. Roberson, D., Davidoff, J., & Shapiro, L. R. (2002). Color Categories Are Not Universal: Replications and New Evidence From a Stone-Age Culture. Journal of Experimental Psychology: General.
10. Regier, T., Kay, P., & Cook, R. S. (2005). Focal Colors Are Universal After All. Proceedings of the National Academy of Sciences.
11. Kövecses, Z. (2005). Metaphor in Culture: Universality and Variation. Cambridge University Press.
12. Mamatov. A.E. Zamonaviy lingvistika. TOSHKENT - "NOSHIR" 2019. B.12.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati 5-jildi 3-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006- 24-bet